

## **IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLAR BOZORINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*I.f.f.d. (PhD) Xakimov Zafar Ibragimovich*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,*

*Avazova Madina Abdisamiyevna*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2- bosqich magistranti*

Jahonda aholi hayot sifatini oshirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal etish va mintaqaviy imkoniyatlardan oqilona foydalanishda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlanmalarga 2020 yilda 190 milliard dollar sarflangan bo'lsa, 2026 yilga kelib, xarajatlar 230 milliard AQSh dollardan oshishi kutilmoqda<sup>1</sup>. Bugungi kunda soha korxonalarini modernizatsiyalash, tayyor mahsulotlarni mahalliyashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish, samarali va bezarar mahsulotlar turlarini o'zlashtirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan sog'liqni saqlash cohasida keyingi besh yillikda amalga oshirilgan kompleks tadbirlar asosida jadal iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo'liga jadal o'tilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mipziyoev "...Tub islohotlapimizning dastlabki kunlaridan boshlab biz xalqimiz sog'ligini mustahkamlashga eng uctuvor vazifa, deb qarab kelmoqdamiz"<sup>2</sup> deb ta'kidlaydi. Mamlkatimiz taraqqiyot strategiyasining tibbiyot sohasidagi eng muhim yo'nalishlardan biri bu aholini sifatli va malakali

---

<sup>1</sup> Манба: <https://nonews.co/directory/lists/countries/health-care-index>.

<sup>2</sup> "Kuchli va samarali tibbiyot tizimini shakllantirish – xalqpapvar davlatning eng asosiy vazifasi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvdasco'zlagan nutqi// Xalq so'zi, 2022-yil 19 mart (№59-60)sconi 1-3- betlar.

tibbiy xizmat bilan ta'minlash, xizmatlar co'hami va hududlar darajasida tibbiy xizmatlar ulushining oshib bopayotganligi, sog'lom tupmush tarzini keng qaror toptirish, tibbiy xizmatlar tapkibining sifat jihatdan kengayishi evaziga yangi ish o'rinlarini yaratish, tibbiy xizmatlar xarajatlarini kamaytirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlarining o'ziga xoc jihatlari, viloyatlarda xam tibbiy xizmatlar bozori (TXB)ning rivojlanish omillari, tendensiyalari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va asosiy yo'nalishlari, innovatsion tibbiyotni rivojlantirish bo'yicha shu kungacha kompleks tadqiqotlar olib borilmaganligi tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

*Ijtimoiy xizmatlar majmui iqtisodiy kategoriya sifatida insonlarning ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarni o'zida namoyon qiladigan sohadir. Ijtimoiy xizmatlar sohasining mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritish va faoliyatini ifodalashda, sog'liqni saqlash tizimi aholi turmush farovonligini oshirish ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash tizimi aholining sog'lig'ini tiklash va yaxshilash, davolash va profilaktik tadbirlarni qo'llashdan jamiyatni ijtimoiy totuvlik va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor qiladi.*

Tadqiqotimizda sog'liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar bozori tushunchasiga ayrim xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tariflarini keltirib o'tishni joiz deb topdik.

Jumladan, Э. Кеңет o'zining ilmiy tadqiqot ishida shunday ta'rifni keltiradi: "Tibbiy xizmatlar bozori — bu tibbiy texnologiyalar, tibbiy acbob uckunalar yordamida raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida tibbiy xizmat ko'rsatuvchi erkin faoliyatni tashkil etishdir<sup>3</sup>. Uning fikricha tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda tibbiy asbob uskunalarni sohaning asosiy vositasi sifatida qaraydi.

R.Saltman uzoq yillik ilmiy tadqiqot ishida "Tibbiy xizmatlar bu-mamlakat sog'ligini saqlashda tibbiyot buyumlaridan va soha xodimlarining

---

<sup>3</sup> Kennet J.Arrow Uncertainty and the welfare economics of medical care.Economics and social facotrs/press.1962.

malakasidan foydalanib tibbiy xizmat sifatida taqdim etishdir<sup>4</sup>. Qaysidir ma'noda tibbiy asbob uskunalari bilan birga tibbiyot xodimlarining bilimi, malakasi va tajribasi bu bozorning rivojlantiruvchi elementlariga aylanmog'I lozim. A.Ilyasova "Tibbiy xizmat bu- "aholiga shifokorlar tomonidan tibbiy yordam ko'rsatuvchi davlat, xususiy korxonalar, poliklinika, ambulator davolash markazlari xisoblanadi<sup>5</sup>. Yani shifokorlarning individual fazilatlari tibbiyot muassasasining tashkiliy -iqtisodiy shakllanishiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

*D.V.Rojkovning fikricha, sog'liqni saqlash bu: ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir insonning va aholining sog'lig'ini tiklash va mustahkamlashga, ishlab chiqarishning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.<sup>10</sup> Yu.P.Lisitsin sog'liqni saqlash har bir insonga sog'lig'i yomonlashganda tibbiy yordam ko'rsatuvchi, uzoq umr ko'rishini jismoniy va ruhiy quvvatlovchi, o'zida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy, tibbiy, sanitariya- epidemiologik va madaniy xarakterdagi davlatning tadbirlar majmui ekanligini<sup>11</sup> ta'riflaydi.*

I.Togunov o'z asarida "Tibbiy xizmat" deganda -"bozor sub'ektlarining o'zaro ta'sirida aholi sog'ligini tiklash, davolash, maqsadida yaratilgan xizmat turlaridan biridir"-deb ta'rif beradi<sup>6</sup>. Uning fikricha bozor iqtisodiyotida har qanday ijtimoiy xizmatning bahosi mavjud va uning istemolchisi sotib olish bilan bu sohaning rivojiga o'zining hissasini qo'shadi.

Yu.Komarov sog'liqni saqlash bu - "aholi kasalliklarini davolash, oldini olish tadbirlariga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni olib borish" dir- deb ta'rif beradi.<sup>7</sup> Chunki tibbiyotda profilaktik chora- tadbirsiz rivojlanish va sohani takomillashtirish boshsiz tanaga qiyoslanadi. Ya'ni, "kasalini yashirsang isitmasi oshkor qiladi" naqliga tayaniladi.

---

<sup>4</sup> R.B.Saltman, J.Figueras/ published by the World health Organization regional office for Europe in 1997 the title euro- pen Health care reform/№72. E.Pittacco Health insurance basic actuarial models/ //springer/.com.series/7879.

<sup>5</sup> The industrial organization of health care market.<http://www.wber.org/paper/w19800.Cambridge.2014>.

<sup>6</sup> Механизм реализации инновационных целей развития экономики // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014. № 16. С. 2-14

<sup>7</sup> Комаров.Ю.М.Что оказывают медицинские учреждения: медицинскую помощь или медицинские услуги. [Электронный ресурс] 05.03.2009.

A. Drozdova tibbiy xizmat bu-malakali mutaxassislar tomonidan taklif etiladigan sog'likni tiklashga xizmat qiluvchi davolash choralari deb talqin qilgan.<sup>8</sup> Asosiy e'tibor insonning aqliy va jismoniy qobiliyati, malakasiga qaratilgan holda yaxshi shifokorga ish doim topilishi, uning mijozlarini ko'payishi va shifokorning xizmati munosib rag'batlantirilishi lozimligi tushitiriladi.

L. Zenina o'zining ilmiy ishida "Tibbiy xizmatlar bu-sog'liqni saqlash tizimi ustuvor tarkibiy qismi sifatida tibbiyot xodimlarining profilaktik faoliyati, tibbiy-ijtimoiy faolligi va aholi turli qatlamlarining sog'lom turmush tarziga yo'naltirish hisoblanadi.<sup>9</sup> Bu berilgan umumiy ta'rif shu sohadagi elementlarning birikuvi natijasida soha rivojlana olishiga ishora qiladi.

*O'zbekistonlik olimlar H.P. Abulqosimov va M.H. Abulqosimovlar fikricha, sog'liqni saqlashga berilgan ta'rifida salomatlik sohasida faoliyat olib borayotgan, maqsadi salomatlikni tiklash va qo'llab-quvvatlash bo'lgan, to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy salomatlikni ta'minlash, uni himoya qilish sohasidagi ishtirokchilar, manbalari va muassasalar majmuidan iboratligi nuqtai nazardan yondashiladi.*

*M.H Saidov, I.I.Nasriyev va boshqalar esa, tibbiy xizmatlar - tibbiyot muassasi tomonidan sug'urta qilingan shaxsga bir martalik yoki mujassam ambulatoriya va statsionar tibbiy yordam ko'rsatish, shu jumladan, dori-darmon bilan ta'minlash, tashhis qo'vish, davolash, kasallik ya'ni sog'liqning boshqacha tarzda izdan chiqishi. homiladorlik, tug'ish munosabati bilan bemorga qarash va rehabilitatsiyalashdan iboratligini ta'kidlashadi.*

*X.E.Rustamova, N.K.Stojanova va boshqalar tomonidan yozilgan o'quv qo'llanmada tibbiyot - bu odamlarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, bemorlarni davolash va kasalliklarning oldini olish hamda insoniyat jamiyatining salomatligi va ishlashi shart-sharoitida uzoq umr ko'rishi haqida amaliy bilim va ilmiy*

---

<sup>8</sup> Механизм реализации инновационных целей развития экономики // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014. № 16. С. 2-14

<sup>9</sup> Что оказывают медицинские учреждения: медицинскую помощь или медицинские услуги. [Электронный ресурс] 05.03.2009.URL:[www.viperson.ru](http://www.viperson.ru).

*bilimlar tizimi ekanligi ta'kidlanadi.*

M. Xaydarov o'zining ilmiy ishida shunday ta'rif beradi: "Tibbiy xizmat-moliyalashtirilgan holdagina jamiyat osoyishtaligi va aholi turmush darajasini yuksaltiruvchi asosiy drayverga aylana oladi"<sup>10</sup>. Boshqa iqtisodiy sohalar singari moliyaviy vosita tibbiyot uchun eng muhim resursdir. Chunki sohada yangi, zamonaviy texnika- texnologiy olib kirilmas ekan sohada o'siham rivojlanish ham bo'lmaydi.

O'. Rajabov o'zining ilmiy ishida "Tibbiy xizmat - moliyalashtirilgan jamiyatda aholi turmush darajasini yuksaltiruvchi davolash-profilaktika ishlarini olib borishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir"<sup>11</sup>.

Biz esa yuqoridagilarni umumlashtirgan holda quydagi ta'rifni shakllantiramiz- "Tibbiy xizmatlar bozori - bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishda ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmni milliy innovatsiyalardan kelib chiqqan holda, tibbiy texnologiyalar jihozlar va malakali tibbiy xodimlar yordamida davlat va nodavlat tibbiy munosabatlarning muvofiqlashtirilgan faoliyatidir".

*Fikrimizcha, tibbiy xizmatlar ko'rsatish yoki sog'liqni saqlashga berilgan ta'riflar uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini to'liq ochib bermagan. Aksariyat ta'riflar sog'liqni saqlashga aholiga ko'rsatiladigan turli tibbiy xizmatlar majmui sifatida qaraladi. Sog'liqni saqlash: aholi sog'lig'ini saqlash va tiklashga, kasalliklar tarqalishining oldini olish, tibbiy vosita va preparatlar ishlab chiqish, tibbiyot xodimlari taqsimoti va ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqish, ijtimoiy muhitni yaxshilash va tibbiy madaniyatni targ'ib etish kabi kompleks xizmatlar majmuidan iborat desak maqsadga muvofiq bo'ladi.*

---

<sup>10</sup> Услуги и сервис как экономическая категория // Сервис. - Самарканд, 2009. - №1.;

<sup>11</sup> Ўзбекистонда тиббиёт соҳасини молиялаштириш, ташкил қилиш, мавжуд имконлардан кенгроқ фойдаланиш истиқболлари// Экономика и финансы № 11, 2013;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arabchikov K. N. Проблемы конкурентоспособности в системе российского здравоохранения / К. N. Arabchikov // Vestnik AKSOR. – 2009. – № 1. – S. 30–32.
2. Baranov I. N. Конкурентные механизмы предоставления медицинских 10 том, 2017 г.
3. Togunov I. A. Теория управления рынком медицинских услуг: монография / I. A. Togunov. – Vladimir: Sobor, 2007. – 308 s.
4. S.Raximova Innovatsion iqtisodiyot sharoitida TXBni tashkil etishning xorij tajribalar. // TDIU Oliy talim: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2020-yil 25-may. 77-82 bet.